

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA FANINING MAQSADI VA VAZIFALAR**Kakabayeva Gurbanjema****NDPI****Boshlang'ich ta'lim fakultetining 1-kurs talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15576308>**

Annotatsiya: Asosan ushbu maqolada ayniqsa boshlang'ich sinflarga tarbiya fanining maqsadi hamda vazifalarini o'rganish bilan bir qatorda shaxs tarbiyasi hamda pedagogik tarbiya haqida ham alohida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, fanning maqsadi va vazifasi, odob - axloq qoidalari, shaxs tarbiyasi, pedagogik qarashlar.

Binobarin, ta'lim tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi...

.., "xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq" deb bizning birinchi prezidentimiz I.Karimov bejisga aytmaganlar. Chunki ta'lim bilan tarbiya chambarchas bog'liq hisoblanadi. Ya'ni ularni bir deb olsakda maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarbiya shaxsda muayyan jismoniy ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimgi va abadiy qadriyatlardan biridir. Shu sababli ham yosh avlodga ilm bilan bir qatorda tarbiya ham berish lozimdir. Bilim bilan tarbiya bir qatorda olib borilishi kerakdir. Buning uchun bizga prezidentimiz bir qancha shart-sharoitlar yaratib bergan bizga yaratib bergin imkoniyatlardan keng unumli foydalanishimiz kerakdir.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. M. Mirzayev 2020 - yil 29 - dekabrda murojaatnomasida "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda uchinchi Renessans paydorini barpo etildi. Bunda yuqori maqsadini qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmlar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiylar va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarini yaratishimiz kerak. Bunday avvalo ta'lim tarbiyani rivojlantirish tarzini qaror toptirish ilmdan innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy usullari bo'lib xizmat qilishi lozim" deydi. Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimizni o'z oldiga katta marralarni qo'yib ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama to'g'ri tarbiya berish barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur deb aytilgan. Buning uchun asosan yosh avlodlarga to'g'ri tarbiya berish nazarda tutiladi. Asosan boshlanish sinf o'quvchilarga to'g'ri tarbiyalash ularga ilm bilim berish bilan bir qatorda tarbiyani ham to'g'ri berish odob- ahloq qoidalarga to'g'ri o'rgatish kerakdir. Sababi tarbiya bor joyda o'sish rivojlanishi bilim ham albatta bo'ladi.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana va rivojlanadi. Ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan huquqiy odatlar hosil bo'ladi. Yoshlarni asosan vatanparvar insonparvar ruhda tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori bilan umumiy ta'lim muassasalarida Odobnoma, Vatan tuyg'usi, milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslar hamda dunyo dinlar tarixlarni birlashtirgan holda yagona tarbiya fani dan 9 sinflarda 2022-2021 o'quv yilidan 10-11-sinflar esa 2021-2013 yil o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umuman musobaqalar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda tarbiya ma'lum bir muddat ichida o'rganib bo'linadigan jarayon emas. Shuning uchun bu jarayon bolalarni maktabga kelishi bilan boshlanadi keyinchalik ham bu jarayon keyin ham davom etadi. Boshlang'ich sinflarda tarbiya fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib unga tarbiyaviy g'oyalari ko'rsatish mahoratiga ega bo'lish:

- Tarbiyaviy ish va tadbirlar uchun zarur organi metodlarni tanlab ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlari ko'ra bilish:

- Ilg'or tajribalarni tahlil qilish va o'z faoliyatda ijodiy foydalanish;

- Tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar ruhiyatga qanchalik javobi ta'sir etganini kuzatib bo'linadi rivojlantirish va takomillashtirish:

- Tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'z bilimini doimiy rivojlantirib borishi lozim...

Tarbiyalash jarayonida asosan odob-ahloq qoidalari ham muhim ro'l o'ynaydi. Tarbiya fanida asosan shaxsning har tomonlama tarbiyalash odob tomondan axloq tomondan ma'naviy moddiy tomondan ham tarbiyalash o'rgatiladi.

Axloq ijtimoiy shakllardan biri bo'lib muoyyon jamiyatda yashovchi kishilar amal qilish zarur bo'lgan ma'lum haqiqat qoidalari yig'indisidir.

Odob otamasi jamoat orasida o'zini tutushi boshqalar bilan qanday muomila qilishi bosh vaqtini qanday tashkil etishi xullas shaxsning yurish turishi hatti harakatlari qanday bo'lishi lozim. Axloq kishining ichki olam e'tiqod fazilatlar sifati mavjud bo'lsa odob shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati xulq-atvori muomala munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. Asosan tarbiya jarayonida ota-ona axloq fazilatlarini o'quvchilarda yaxshi fazilatlarining yuqori darajasi shakllanishiga olib keladi. Bularni o'rganish bo'lsa tarbiya jarayoniga bog'liq bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim joizki tarbiya fani va uning asosiy maqsadi va vazifalari asosan yosh avlodlarga to'g'ri tarbiya berish ularni insonparvarlik hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Asosan yosh avlodni boshdan ya'ni boshlang'ich sinfdan tarbiyalash va boshlang'ich sinflarga ham tarbiya fanining kiritilishi buning ochiq oydin misoli bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga tarbiyani to'g'ri berish urgatish odobli qoidalarini o'rgatish ularning ertangi kuniga ham ta'sir ko'rsatadi. Chunki o'quvchilarga boshdan berilgan bilim ya'ni boshdan olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir deb behudaga aytishmaganlar. Darhaqiqat tarbiyani to'g'ri berish ham olish ham shunday hisoblanadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent - 2010.
2. B. Abdullayev, M. Tursunova, M. Xaydarova "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" Toshkent - 2022.
3. M. Hamdamova "Ma'naviyat asoslari" Toshkent - 2008.
4. Arxiv.uz
5. Oefen.uz